



Abdurashid ASKAROV^a

^a International Islamic Academy of Uzbekistan, PhD

A. Qadiri Street 11, 100011, Tashkent, Uzbekistan

E-mail: Mustarib@list.ru

«MUKHTASARU-L-MA'ONIY» BALOG'AT ILMI RIVOJIDA MUHIM MANBA

Аннотация. Ushbu maqolada mashhur mutafakkir Sa'duddin Taftazoniy tomonidan yozilgan «Muxtasaru-l-ma'oni» asarining balog'at ilmidagi o'rni, nazariy asoslari va tahliliy xususiyatlari keng qamrovli tadqiq qilinadi. Asarning yaratilish tarixi, uning yozilish sabablari, tarkibiy tuzilishi va «Mutavval» asari bilan qiyosiy jihatlarini o'rganiladi. Taftazoniy o'zining bu asarida balog'at ilmining ma'oni, bayon va badi' tarmoqlariga oid masalalarni qisqacha, lekin chuqur ilmiy tahlillar bilan yoritgan. Ayniqsa, itnob, tashbih, istiora, kinoya, qasr, insho, e'tiroz, ijaz, musovot, lafziy va ma'naviy san'atlar kabi balog'at san'atlari muallif tomonidan o'ziga xos metodologik yondashuvda sharhlangan.

Maqolada Taftazoniy «Muxtasaru-l-ma'oni» asarida ilgari yozgan «Mutavval» asaridan farqli ravishda qanday ixcham va soddalashtirilgan uslubda bayon qilganini ko'rsatadi. Shuningdek, fors va arab balog'ati o'rtasidagi bog'liqlik, ilmlararo aloqalar hamda Taftazoniy tomonidan ilgari surilgan ba'zi original fikr va qarashlar ham yoritiladi. Asarning qo'lyozma nusxalari, ular saqlanayotgan ilmiy muassasalar va nashr tarixiga oid ma'lumotlar ham batafsil tahlil etilgan.

Mazkur maqola balog'at ilmining rivojlanishida Taftazoniy merosining tutgan o'rni, uning ilmiy maktabi va nazariy qarashlarining dolzarbligini ochib beradi hamda bugungi tadqiqotlar uchun boy manba bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Sa'duddin Taftazoniy, balog'at, «Muxtasaru-l-ma'oni», «Mutavval», «Sharhu-l-miftoh», ma'oni, bayon, badi', itnob, istiora, tashbih, kinoya, qasr, iltifot, hol, maqom, arab adabiyoti.

«MUKHTASARU-L-MA'ANI» IS AN IMPORTANT SOURCE IN THE DEVELOPMENT OF BALAGAT SCIENCE

Abstract. This article presents a comprehensive study of Mukhtasar al-Ma'ani, a renowned work by the famous scholar Sa'd al-Din al-Taftazani, focusing on its role, theoretical foundations, and analytical features within the science of balagha (Arabic rhetoric). The research explores the history of the work's composition, the motivations behind its writing, its structural organization, and its comparative aspects with his earlier work al-Mutawwal. In Mukhtasar al-Ma'ani, Taftazani concisely yet deeply analyzes the branches of balagha, namely ma'ani (semantics), bayan (clarity), and badi' (embellishment). Particular attention is given to rhetorical devices such as itnab (amplification), tashbih (simile), isti'arah (metaphor), kinayah (allusion), qasr (restriction), insha' (creative expression), i'tirad (interjection), ijaz (brevity), musawat (equilibrium), and both lexical and semantic artistic figures. The study highlights the unique methodological approach adopted by the author in explaining these elements.

The article also illustrates how Mukhtasar al-Ma'ani differs from al-Mutawwal in its brevity and simplified style. Furthermore, it sheds light on the interrelation between Persian and Arabic rhetoric, interdisciplinary connections, and some of Taftazani's original thoughts and viewpoints. The manuscript copies of the work, the institutions where they are preserved, and its publication history are examined in detail.

This article underscores the importance of Taftazani's legacy in the development of rhetorical science, reveals the relevance of his theoretical school, and presents his work as a valuable source for contemporary scholarly research.

Keywords: Sa'duddin Taftazani, rhetoric (balagha), Muxtasaru-l-ma'ani, Mutawwal, Sharh al-Miftah, ma'ani, bayan, badi', itnab (amplification), isti'arah (metaphor), tashbih (simile), kinayah (allusion), qasr (restriction), iltifat (rhetorical shift), hal (circumstantial clause), maqam (context), Arabic literature.

KIRISH

Qur'on, hadis va adabiy asarlar balog'atini tadqiq etishda Sa'duddin Taftazoniyning balog'atga bag'ishlab yozilgan asarlari ilmiy-nazariy manba vazifasini o'tay oladi. Bugungi kunda olimlar tomonidan «Mutavval», «Muxtasaru-l-ma'oniyy», «Sharhu-l-miftoh» asarlari tekstologiyasi, tarkibiy tuzilishi, mazkur asarlardagi balog'at qoidolari hamda terminlarining qo'llanilishi borasida amalga oshirilgan tadqiqotlar Taftazoniyning balog'at ilmining nazariy qoidalarini ishlab chiqishda o'z uslubiga ega ekanini ko'rsatadi. Asarlarda itnob, istiora, muhassanot badi'iyya, tashbeh, kinoya, qasr, iltifot masalalarida ilgari surilgan nazariy qarashlar sohada olib borilayotgan tadqiqotlar salmog'ini oshirishga xizmat qiladi.

ASOSIY QISM

Sa'duddin Taftazoniyning balog'at ilmiga oid «Muxtasaru-l-ma'oniyy» (مختصر المعاني) nomli asari bo'lib, u Qazviniyning «Talxisu-l-miftoh» asariga yozilgan ikkinchi sharhidir. Asar muqaddimasidan Taftazoniy mazkur asarni o'zi maxsus nomlamagani ma'lum bo'ladi. Keyinchalik asar «ash-Sharhu-s-sag'ir» nomi bilan ham atalgan. Bu asarga Subki Nazir «Havoshi-sh-sharhi-s-sag'ir» nomli hoshiya yozgan. Sa'duddin Taftazoniy «Muxtasaru-l-ma'oniyy» asarini 1355 sanada G'ijduvonda nihoyasiga yetkazgan va uni sulton Abu Muzaffar Mahmud Jonibekxonga taqdim qilgan (Hasan, 1997:236).

Asarning chop etilgan nusxalari ko'p bo'lib, ulardan biri «Shuruh-t-Talxis» nomli majmuada chop etilgan. Mazkur asar Muhammad Muhyiddin Abdulhamid tomonidan «Muxtasaru-l-ma'oniyy» nomi bilan qayta nashr etilgan. Uning har bir faslida mavzuga doir mashqlar keltirilgan. Ushbu nashr oldingilaridan aniqligi bilan ajralib turadi. Abdulmuta'al So'idiy ushbu asarni «Sharhu-l-muxtasar» nomi bilan nashr qilgan. U Sa'duddin Taftazoniyning matn iborasini bayon qiluvchi hoshiyalar va sharhlar keltirgan.

Sa'duddin Taftazoniy «Muxtasaru-l-ma'oniyy» asarini yozish sabablaridan biri «Mutavval»da o'zi sharhini uzaytirib yuborgan ayrim ilmiy masalalarni qisqa ko'rinishda ochib berish va uni o'quvchilar yanada oson tushunishi uchun ixchamlashtirgan. Shuningdek, u asarda iboralar sharhi, balog'atga oid qo'shimcha fikrlar, ayrim qarashlarga e'tiroz va ularning yechimiga alohida bo'limlar ajratgan.

Taftazoniy «Muxtasaru-l-ma'oniyy» asarining muqaddimasida mazkur asarni yozish borasida: Men «Talxisu-l-Miftoh»da kelgan ma'lumotlarni

sharhladim. Unga nozik fikrlar chizib bergan satrlar nafisligi bilan bezak berdim. So'ng ko'plab fozillar va zakovatli kishilarni ko'rdim. Ular mendan uni muxtasar qilish, ma'nolari bayonini qisqartirish, mavhum o'rinlarni ochish tomon himmatimni sarf qilishimni so'rashdi. Buning sababi ular tahsil oluvchilarning asar nurlarini yaxshilab o'rganishdan himmatlari kamaygani, uning yashirin sirlarini ochishga jur'atlari pasayganiga guvoh bo'lishgan edi. Shunday qilib asarni ikkinchi marta ularning taklifiga ko'ra sharhlash va birinchisini qaytadan muxtasar qilish uchun e'tiborni jilovlash tomon turdim», deb balog'at ilmiga oid ikkinchi asarining yozilish sababini keltirib o'tgan (at-Taftazoniy, 2017:23).

«Muxtasaru-l-ma'oniyy» asari bilan «Mutavval» o'rtasidagi farqlardan biri ushbu ikki asarni qiyoslagan tadqiqotchi Sa'duddin Taftazoniy «Muxtasaru-l-ma'oniyy» asarida «Mutavval»da keltirgan ko'p bahslarni, Qazviniyga bildirilgan ayrim e'tirozlarni, «Kashshof» va boshqa asrlardan keltirgan iqtiboslarni qisqartirgani, «Mutavval»da Qazviniyning so'zlarini dalillash yoki to'ldirish maqsadida ulamolardan keltirgan ko'p misollardan voz kechib, ularning mazmuniga ishora qilish bilan cheklanganini ko'rish mumkin (at-Taftazoniy, 2013:34).

Taftazoniy «Muxtasaru-l-ma'oniyy»da Sakkokiyning «Miftoh» va Qazviniyning «Izoh» asarlaridagi balog'at ilmiga oid ba'zi chigalliklarni ochishda o'zining «Mutavval» asarida keltirgan ma'lumotlarni, ko'p hollarda savol-javoblarni qisqartirgan. Lekin o'zidan oldingi «Talxis» asarini sharh qilgan olimlarning xatolariga e'tibor qaratib, «Mutavval»da ularga bildirgan munosabatlarini «Muxtasaru-l-ma'oniyy» asarida qoldirgan. Chunki, Sa'duddin Taftazoniyning «Muxtasaru-l-ma'oniyy» asari matn sharhiga bevosita bog'langan asardir. Shu bilan birga, Taftazoniy ushbu asarda ba'zi fikr va mulohazalarni qisqartirgan. «Mutavval»da mufassal bayon qilgan ba'zi ma'lumotlarni qisqartirgan va unga ishora berish bilan kifoyalangan. Shuningdek, Taftazoniy «Mutavval» asarida nomlarini keltirgan olimlarning ba'zi so'zlarni ham qisqartirgan.

Taftazoniy o'zi sharhlayotgan matn muallifi bildirgan fikrlarni va u keltirgan misollarini tushunish borasida balog'atga oid ikkinchi sharhi «Muxtasaru-l-ma'oniyy»da birinchi sharhi «Mutavval»da keltirilmagan balog'atga oid ba'zi ilmiy tahlillarni va bildirilmagan ilmiy qarashlarni, shuningdek, olimlarning avval keltirilmagan fikrlarini keltirgan va ularga munosabat bildirgan (at-Taftazoniy, 2013:86).

Taftazoniy shuningdek, o'zi avval qat'iy fikr bildirmagan bir qancha masalalarga oid fikrlarini ochiq bildirgan. Oldin faqat laqablarini zikr qilish bilan kifoyalangan ba'zi balog'at olimlarining ismini ham to'liq keltirgan. Nisbat berilishi noma'lum bo'lgan ba'zi ilmiy qarashlarni egalariga nisbat bergan. «Muxtasaru-l-ma'oniyy» asarida shaxsiy jihatlarini ochib beradigan qissalar va ajoyib voqealar ham qo'shimcha qilingan.

Olim «Muxtasaru-l-ma'oniyy»da keltirgan qo'shimchalarga uning fors adabiyoti va balog'ati bilan chuqur tanishib chiqqani ham katta ta'sir qilgan. Chunki, u asarida arablar balog'ati bilan forslar balog'atini solishtirishga harakat qilgan.

«Muxtasaru-l-ma'oniyy»da «Mutavval»dan farqli ravishda yangicha sharhlash uslubidan borilgan. Bu avvalo tadqiqotchi uchun matnni chuqur tushunishga, ikkinchidan muallifning ba'zi fikrlarida ko'zda tutilgan maqsadni ham tushunishga yordam beradi.

«Muxtasaru-l-ma'oniyy»ga bir qancha hoshiya va izohlar yozilgan. Asar hijriy 1854-yilda Dasuqiyning xoshiyasi bilan Qohiradagi «Buloq» matbaasida nashr etilgan (Zayf, 2008:186).

MUHOKAMA

«Muxtasaru-l-ma'oniyy» balog'at va fasohat, balog'at darajalari va balog'atning ma'oniyy, bayon, badi' tarmoqlarining xususiyatlariga doir nazariy ma'lumotlar bilan boshlangan.

Asarning bu qismi quyidagi mavzularni o'z ichiga oladi: sharhlovchining muqaddimasi (مقدمة الشارح), kirish so'zi (كلمة الافتتاح), balog'atning uchinchi tarmog'i qo'shilishi haqida (وجه ترجية الفن الثالث), «Miftoh»ning yozilishi haqida (وجه تأليف المفتاح), muallifning uslubi (أقسام), balog'at va fasohat bo'limlari (مناهج المصنف), fasohat haqida (بيان الفصاحة), gap fasohati haqida (الفصاحة في الكلام), notiqning fasohati (البلاغة في الكلام), gapdagi balog'at (البلاغة في الكلام), gap qadrining yuksalishi (ارتقاء شأن الكلام), balog'atning darajalari (مراتب البلاغة), notiqning balog'ati (مرجع البلاغة في), gapdagi balog'atning manbai (وجه), balog'atning uch tarmog'i xususiyatlari (الكلام), (انحصار المقصور في الفنون الثلاثة) (at-Taftazoniy, 2017:230).

Taftazoniy balog'atning ma'oniyy, bayon va badi' ilmlari haqida o'zigacha fikr bildirgan olimlar qarashlariga asosli ilmiy munosabatlarini bayon etgan. Quyida Taftazoniyning balog'at ilmiga oid asarlarining tarkibi keltiriladi:

Ma'oniyy ilmi. Taftazoniy «Muxtasaru-l-ma'oniyy» asarida ma'oniyy ilmini quyidagicha ta'riflaydi:

وهو علم يعرف به أحوال اللفظ العربي التي بها يطابق اللفظ مقتضى الحال (أي ملكة يقتدر بها على إدراكات جزئية)

Bu – arab tilidagi gapning vaziyat talab qilgan holatga mos keladigan ko'rinishlarini va jihatlarini (ya'ni nozik tushunchalarni idrok eta olish malakasi va ko'nikmasi) o'rganiladigan ilm.

Taftazoniy ma'oniyy ilmini quyidagi mavzularga bo'lib tahlil qilgan: haqiqat va yolg'on tushunchalari haqida (تفسير الصدق والكذب), bir so'zni boshqa so'zga bog'lab darak gaplar tuzish haqida (أحوال الإسناد), vaziyat taqozosiga teskari bo'lgan gap aytish (إخراج الكلام على خلاف مقتضى الحال), haqiqiy ma'noda bir so'zni boshqa so'zga bog'lash (الإسناد الحقيقي), majoziy ma'noda bir so'zni boshqa so'zga bog'lash (أقسام المجاز العقلي), aqliy majoz haqida (المجاز في القرآن), aqliy majozdagi qariyna-aniqlashtiruvchi so'z haqida (وجه القرينة للمجاز), (أحوال المسند إليه), gapda egani tushurib qoldirilishi (حذف المسند إليه), eganing gapda zikr etilishi (ذكر المسند إليه), gapda egani olmosh orqali ifoda etish (تعريف المسند إليه بالإضمار), gapda egani atoqli ot orqali ifoda etish (تعريف المسند إليه بالعلمية), gapda egani nisbiy olmosh orqali ifoda etish (تعريف المسند إليه بالموصولية), gapda egani ko'rsatish olmoshi orqali ifoda etish (تعريف المسند إليه بالإشارة), gapda egani (ل) qo'shimchasini olgan so'z orqali ifoda etish (تعريف المسند إليه باللام), gapda egani qaratqich kelishigili birikma orqali aniq ifoda etish (تعريف المسند إليه بالإضافة), gapda egani noaniq holatdagi so'z orqali ifoda etish (تتكبير المسند إليه), gapda egadan boshqa bo'laklarni noaniq holda ifoda etish (وصف المسند إليه), gapda egani ta'kidlab keltirish (توكيد المسند إليه), gapda egani izohlovchi bilan birga ifoda etilishi (بيان المسند إليه بعطف), eganing izohlovchisi haqida (الإبدال من المسند إليه), eganing uyushib kelishi haqida (العطف على المسند إليه), eganing ajratuvchi olmosh bilan kelishi (تعقيب المسند إليه), eganing gapda boshqa bo'laklardan avval kelishi haqida (تقديم المسند إليه), muallifning bu boradagi fikriga oid bob (باب ما أنا قلت), eganing gapda boshqa bo'laklardan keyin kelishi haqida (تأخير المسند إليه), nutqda e'tiborni o'ziga tortish (الالتفات), nutqda e'tiborni go'zal tarzda o'ziga tortish yo'llari haqida (وجه حسن التعبير عن المستقبل), ifodalamoqchi bo'lgan fikrning teskarisini aytish (أحوال المسند), kesimni tushirib qoldirish haqida (ترك المسند), kesimni gapda keltirish (ذكر المسند), kesimni yakka holda keltirish (إفراد المسند), musnad-kesimning fe'l orqali ifodalanishi (كون المسند فعلا), kesimning ism orqali ifodalanishi (كون المسند فعلا)

تقييد الفعل بمفعول و) fe'lni to'diruvchi bilan bog'ash (اسما), fe'lni to'diruvchi bilan bog'ash (ترك تقييد المسند), musnadni qayd qilmaslik (تقييد الفعل بالشرط), shart yuklamalari haqida (بيان أدوات الشرط), qachonki, agar, agarda (إذا), tag'lib (التغليب), kesimning noaniq holda kelishi (تخصيص المسند), kesimni xoslash (تعزيز المسند), kesimni gap orqali ifodalanishi (كون المسند جملة), kesimni (egadan) keyin keltirish (تأخير المسند), kesimni (egadan) avval keltirish (تقديم المسند), fe'l bilan bog'liq holatlar (أحوال), fe'l bilan to'diruvchini birga keltirmaslik (عدم ذكر المفعول مع الفعل), to'diruvchining tushurib qoldirish yo'llari (وجود حذف المفعول), to'diruvchining (fe'ldan) oldin keltirish holatlari (وجود تقديم المفعول), ba'zi ikkinchi darajali bo'laklarni oldin keltirish (تقديم بعض المعمولات على بعض), qasr (القصر), qasr-cheklovning ta'rifi va uning qismlari (تعريف القصر وتقسيمه), qasrning ifrod deb nomlangan turi (قصر أفراد), qasrning qalb deb nomlangan turi (قصر قلب), qasrning ta'yin deb nomlangan turi (قصر تعيين), qasrning ifrod turining sharti (شرط قصر الأفراد), qasrning qalb turining sharti (طرق القصر), qasrning uyushiq bo'lak bilan kelishi (القصر بالعطف), qasrning bo'lishsizlik shakli va istisno bilan kelishi (القصر بالنفي), qasrning oldin yuklamasi bilan kelishi (القصر بالتقديم), qasrning oldin keltirilishi (القصر بالنفي ب), bo'lishsizlikning ko'pikda bilan kelishi (جمع النفي ب), bo'lishsizlik va istisnoni noaniq holda keltirish (استعمال), aniq holda keltiriladigan yuklamasini majhul o'rnida keltirish (استعمال), uyushiq bo'lakka bog'langan yuklamasining xususiyatlari (مزية «إنما»), qasr bilan cheklangan so'zning istisno yuklamasi bilan kelishi (أداة الاستثناء), ko'plikni qasr bilan ifodalashning bir turi (وجه إفادة الجمع بالقصر), insho (الإنشاء), so'roq gap (الاستفهام), so'roq gapning hamza bilan kelishi (وجه إفادة الجمع بالقصر), so'roq gapning hol bilan kelishi (وجه إفادة الجمع بالقصر), so'roq gapning boshqa yuklamalar bilan ifodalanishi (الاستفهام بباقي الألفاظ), so'roq yuklamalarining so'roqdan boshqa maqsadlar uchun (استعمال الكلمات الاستفهامية في غير الاستفهام), undalma (النهى), inkorni ifodalash (الأمر), ajratish va qo'shish (الفصل والوصل), fasl va vashning o'rinlari (بيان الفصل والوصل و موارد), vashlashni taqozo qilgan o'rinlar (الأحوال المقتضية للوصل), vashda ikkita jumla o'rtasini jamlovchining turlari (تذنيب), taznib-ilova keltirish (تقسيم الجامع بين الجملتين), hol ergash gapda olmosh hamda va (و) qo'llash yoki ularni tushirib qoldirish (إيراد الضمير والواو وتركهما في)

«و» (الجملة الحالية), hozirgi zamondagi bo'lishli fe'lning (امتناع الواو على المضارعة المثبتة), bog'lovchisi bilan kelishi (امتناع الواو وتركه في), bog'lovchisi bilan kelishi yoki kelmasligi (الامتياز الواو وتركه في), ismiy jumlaning orasada kelgan (الاختلاف في الواو حين أحال جملة), bog'lovchisi haqida (المساواة), iyjoz-qisqa qilish (تقسيم الإيجاز), itnob-cho'zish (التكرير), iyg'ol (التكميل), takmil (التكميل), tatmim (التكميم), e'tiroz (الاعتراض) (at-Taftazoniy, 2017:289).

Taftazoniy ma'oniylar boshqa olimlar kabi isnodning darak gapdagi keladigan holatlari (أحوال), musnad ilayhning holatlari (الإسناد الخبري), fe'lga bog'langan gap bo'laklarining holatlari (أحوال متعلقات), qasr (القصر), insho (الإنشاء), fasl va vash (الفصل و), va iyjoz, itnob (الإطناب), musovot (المساواة) bo'limlarni keltiradi.

Taftazoniy bayon ilmiga quyidagi ta'rifi keltiradi:

و هو علم يعرف به إيراد المعنى الواحد بطرق مختلفة في وضوح الدلالة عليه

Bu – bir ma'noni turli xil yo'llar orqali aniq yoritib berishni o'rganiladigan ilmdir.

Taftazoniy asarlarida bayon ilmi mundariyasi quyidagicha: dalolat-ma'no ifodalashga berilgan ta'rif va uning tasnifi (تعريف الدلالة وتقسيمه), majoz va kinoyaning ta'rifi (تعريف المجاز والكناية), tashbeh (التشبيه), tashbehning ruknlari (أركان التشبيه), tashbehning ikki tomoni (طرفا التشبيه), tashbehda o'xshatilayotgan jihat (الغرض من التشبيه), tashbehdan maqsad (وجه التشبيه), ikkala tomonni hisobga olgan holdagi tashbeh turlari (أقسام التشبيه باعتبار الطرفين), o'xshatilayotgan jihatga ko'ra tashbehning turlari (أقسام التشبيه باعتبار وجه التشبيه), o'xshatish vositasiga ko'ra tashbehning turlari (أقسام التشبيه باعتبار الأداة), tashbehning maqsadga ko'ra turlari (أقسام التشبيه باعتبار الغرض), tashbehning kuchli va zaifligiga ko'ra turlariga doir xulosa (الحقيقة والمجاز), haqiqat va majoz (تعريف الحقيقة), majozning ta'rifi va turlari (تعريف المجاز وتقسيمه), haqiqat va majozning turlari (تقسيم الحقيقة والمجاز), mursal majoz va istiora (تقسيم المرسل), istiora va uning turlari (المجاز المرسل والاستعارة), ikkala tomonga ko'ra istioraning turlari (أقسام الاستعارة باعتبار الطرفين), umumiy jihatga ko'ra istioraning boshqa bir turi (تقسيم), istiora qilinyotgan so'zga ko'ra istioraning yana bir turi (آخر للاستعارة باعتبار الجامع), murakkab majoz (المجاز المركب), kinoyali istiora va xayoliy istiora haqida (بيان الاستعارة بالكناية), majoz haqiqati haqida bahs (مباحث)

الفرق (kinoya va majoz orasidagi farq (في حقيقة المجاز), kinoyaning turlari (تقسيم الكناية), imo (بين الكناية والمجاز), belgi, ishora (الإشارة) (at-Taftazoniy, 2020:235).

Taftazoniy «Muxtasaru-l-ma'oniyy» asarida badi' ilmiga quyidagi ta'rifni keltiradi:

«U gapdagi ma'noning ravshanligini hamda vaziyatga muvofiqligini ta'minlangandan so'ng nutqni go'zallashtirish jihatlari o'rganiladigan ilmdir».

Badi' ilmini Taftazoniy quyidagicha tahlil qilgan: vujuh tahsin al-kalom (وجوه تحسين الكلام), al-muhassanot al-ma'naviya (المحسنات المعنوية), mutobaqa (المطابقة), muroot an-nazir (مراعاة النظر), irsod (الإرصاد), mushokala (المشكلة), muzovaja (المزوجة), aks (العكس), ruju' (الرجوع), tavriya (التورية), istixdom (الاستخدام), laff va nashr (الف والنشر), al-jam' (الجمع), tafriq (التفريق), taqsim (التقسيم), al-jam' ma'a tafriq (الجمع مع التفريق), al-jam' ma'a at-taqsim (الجمع مع التقسيم), tajrid (التجريد), al-mubolag'a al-maqbula (المبالغة المقبولة), husn at-ta'dil (حسن التعليل), at-tafri' (التفريع), ta'kid al-madh bimo yushbihi az-zamm (تأكيد المدح بما يشبه الذم), ta'kid az-zamm bimo yushbihi al-madh (تأكيد الذم بما يشبه المدح), al-istitbo' (الاستتباع), al-idmoj (الإدماج), at-tavjih (التوجيه), al-hazl allazi yurod bihi al-jidd (الهزل الذي يراد به الجد), tajohul al-orif (تجاهل العارف), itrod (الإطراد), al-muhassanot al-lafziya (المحسنات اللفظية), al-jinos (الجناس), radd al-ajz ala-s-sadr (رد العجز على الصدر), saj' (السجع), muvozana (الموازنة), qalb (القلب), tashri' (التشريع), luzum mo lo yalzum (لزوم ما لا يلزم) (at-Taftazoniy, 2017:316).

Bu ilm san'at hosil qilishdagi xususiyatiga ko'ra ikki guruhga ajratiladi. Birinchisi, so'zning tovush jihati e'tiborga olib hosil qilinadigan san'atlar bo'lib, ular «lafziy go'zalliklar» (al-muhassanotu-l-lafziyya – المحسنات اللفظية), deb ataladi. Ikkinchisi, so'zning ma'no jihati ko'ra hosil qilinadigan ma'naviy san'atlar bo'lib, ular «ma'no go'zalliklari» (al-muhassanotu-l-ma'naviyya – المحسنات المعنوية), deb nomlanadi.

«Muxtasaru-l-ma'oniyy»ning qo'lyozma nusxalari. O'zR FA Sharqshunoslik instituti fondida saqlanadigan qo'lyozmalar:

13228/1 raqam ostida saqlangan, o'lchami 26x17,5 mm., 17 satrdan iborat. 230 (1b–293a) varaq. Sharq qog'oziga 1875-yilda nasx xatida ko'chirilgan.

10683/7 raqam ostida saqlangan, o'lchami 2x17mm., 24 satrdan iborat. 107 (92b–199b) varaq. Sharq qog'oziga 1417-yilda nasx xatida ko'chirilgan.

6021 raqam ostida saqlangan, o'lchami 26,5x17 mm., 19 satrdan iborat. 155 varaq. Sharq qog'oziga 1832-yilda nasx xatida ko'chirilgan.

4121/1 raqam ostida saqlangan, o'lchami 22x12,5 mm., satri 23 bo'lgan nusxa. 156 (1b–156b) varaq. Sharq qog'oziga 1551-yilda nasx xatida ko'chirilgan.

7223/1 raqam ostida saqlangan, o'lchami 21,5x16 mm., satri 17 bo'lgan nusxa. 309 (1b–309b) varaq. Sharq qog'oziga 1890-yilda nasx xatida ko'chirilgan.

Boshqa fondlarda saqlanayotgan nusxalar:

229 raqam ostida saqlangan, o'lchami 13,5x22 mm., satri 18 bo'lgan nusxa. 201 varaq. Sharq qog'oziga nasx xatida ko'chirilgan. Mazkur nusxa O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi Manbalar xazinasida saqlanadi.

392 raqam ostida saqlangan, o'lchami 14x23 mm., satri 18 bo'lgan nusxa. 38 varaq. Sharq qog'oziga nasta'liq xatida ko'chirilgan. Mazkur nusxa O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyida saqlanadi.

NATIJA

Asarlarning qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, Taftazoniy «ma'no go'zalliklari»ni ifodalovchi (المحسنات المعنوية) san'atlarni gapda ifodalanishi kerak bo'lgan asosiy jihat bo'lgani sababli birinchi keltiradi. Taftazoniy balog'atga oid asarlarni sharh qilishda aniqlikka juda katta e'tibor qaratgan va o'zi sharh qilayotgan asarlarning mualliflari tomonidan yozilgan qo'lyozma nusxalaridan foydalangan. U balog'atga oid uchinchi asari «Sharhu-l-miftoh»ning ba'zi o'rinlarida avval yozgan ikki asari «Mutavval» va «Muxtasaru-l-ma'oniyy»da qo'llagan uslubidan o'zgacha yondashgan. Unda ilmiy tahlillarni va misollarni ko'paytirgan hamda balog'atga oid juda nozik masalalarni ham keltirgan. Taftazoniy o'zining ikkinchi sharhi «Muxtasaru-l-ma'oniyy»da avval yozgan sharh asari «Mutavval»ni muxtasar qilish bilan birga unga balog'atga oid qo'shimcha yanliliklar ham kiritgan va ularni rivojlantirgan. Taftazoniyning balog'atga oid asarlari mundariyasi, har uchala asarda bir xil. Mundarija bir-birini takrorlasa-da, asosiy o'zgarishlar asar matnida o'z aksini topgan.

Taftazoniy Jurjoni, Zamaxshariy, Sakkokiy, Qazvinii kabi olimlarning balogatga doir asarlarini o'rganish bilan birga ularning qarashlariga nisbatan o'zining fikrlarini ham bayon qilgan. Uning balog'at ilmiga oid fikrlari balog'atga oid boshqa asarlarda mashhur bo'lmagan qarashlardan iboratdir. U «Sharh al-miftoh»da balog'atga oid atama va misollarni sharhlagani va tahrir qilganini e'tirof etgan (at-Taftazoniy, 2020:3).

Olim birinchi bo'lib hol (حال) atamasidan maqom (مقام) tushunchasini ajratgan. Taftazoniygacha hol atamasi maqom tushunchasini ham o'z ichiga olar edi.

البلاغة في الكلام بأنه مطابقته لمقتضى الحال مع فصاحته

«Kalomdagi balogʻat gapning hol taqozosiga fasohat bilan muvofiq kelishidir» (Sakkokiy, 1999:247).

Koʻrinib turganidek, hol istilohi balogʻat taʼrifi tarkibida kelgan boʻlib, maqom tushunchasini ham qamrab olgan. Bu haqda Ahmaq Qolish shunday degan:

«Taftazoniydan avvalgi olimlar «hol»ga (الأمر) «Maxsus koʻrinish (الداعي إلى التكلم على وجه مخصوص) ila gapirishga undovchi ish», deb taʼrif berganlar va «maqom» tushunchasini uning yoniga qoʻshishgan» (Qalash, 2004:26). Taftazoniydan avvalgi balogʻat olimlar va zamondoshlari yozgan asarlarda ushbu ikki istiloh tenglashtiriladi.

Taftazoniy birinchi boʻlib «Mutavval» asarida yuqoridagi ikki tushunchani farqlab shunday degan:

«Odamlar maqtoʻv, qoralash, shikoyat, uzr soʻrash, iftixor va shu kabi maʼnolardan birini ifoda qilmoqchi boʻlsalar turib yo oʻtirib, oʻzlari oʻrgangan munosib kalom bilan oʻsha maʼno haqida soʻzlashganlar. Shu tariqa ular narsani oʻz makoni nomi bilan atagan holda maqomlar (مقامات) yoki majlislar (مجالس) deb nomlashgan. Ular ushbu maxsus kalomga undovchi ishlarni oʻsha kalom aytilgan joy va oʻrniga koʻra maqom (مقام) deb, uning zamon va vaqtiga koʻra hol (حال) deb nomlaganlar hamda «Falonchi madh yoki zamm maqomida yoki holda soʻzladi», deganlar. Bu kalom gohi oʻz oʻrnida boʻlgan yoki boʻlmagan, gohida vaqtiga munosib boʻlgan yoki boʻlmagan. Demak, tegishli vaqtda munosib kayfiyat bilan kalom ayitishga undovchi ish «hol» ekani maʼlum boʻldi. Kalomning tegishli joyda aytilishiga undovchi ish «maqom» hisoblanadi (at-Taftazoniy, 2020:125).

Taftazoniy oldingi taʼrifga yana bir farq qoʻshgan:

«Shuningdek, maqom (مقام) taqozo qilingan (المقتضى)ga qoʻshilishi eʼtiborga olinadi va taʼkid, mutlaqlik, tushirib qoldirish va isbot maqomi deyiladi. Hol (حال) esa taqazo qiluvchi (المقتضى)ga nisbatan qoʻllaniladi va «inkor holati» yoki «zehning bexabar boʻlish holati» deyiladi» (at-Taftazoniy, 2013:25).

Ikkinchidan, Taftazoniyning (المقتضى الحال) «taqozo qilingan holat» bilan (الخصوصية المناسبة) «munosib xususiyat» yoki (الاعتبار المناسب) «munosib eʼtibor» tushunchalarini farqlagan:

«Kalomning goʻzalligi va uni qabul qilinish darajasining ortishi «taqozo qilgan holat» yoki «munosib eʼtibor»ga muvofiq kelishi bilan boʻladi» (at-Taftazoniy, 2020:256; al-Qazviniy, 2003:34).

Taftazoniy ikki atamani quyidagicha ajratgan:

«Haqiqatda, taqozo qilingan holat – munosib xoslikni oʻz ichiga olgan kalomdir. Shunga koʻra,

tinglovchining xabarni inkor qilishini bartaraf qilish uchun (إِنْ زِيداً لِقَائِهِ) – «Chindan ham, Zayd turibdi», deyiladi. Ushbu gap tinglovchining holatiga mos keladi. Yaʼni, Zaydning tik turganiga tinglovchi tomonidan boʻlgan inkor taqozo qilgan oʻsha umumiy holatning bir qismi hisoblanib, xususiyatni oʻz ichiga olishda unga muvofiq keladi va uni tasdiqlaydi» (at-Taftazoniy, 2020:21).

Taftazoniy balogʻatning ayrim istilohlari taʼrifiga oʻz munosabatini bildirgan.

1) Taftazoniy iltifot (التفات)ning taʼrifida shunday degan:

«Iltifot (التفات) gapning bir (birinchi, ikkinchi va uchinchi shaxslardagi) uslubdan boshqa, tinglovchi kutmagan uslubga oʻtishidir. Bu soʻzlovchining nozik taʼbligini ifoda qilish va tinglovchining diqqatini uygʻotish uchun xizmat qiladi» (at-Taftazoniy, 2013:131).

Zamaxshariy esa iltifotning taʼrifida shunday degan:

«Gapni bir uslubdan boshqa uslubga oʻtkazish – tinglovchini faollashtirish hamda uning eʼtiborini tortish uchun eng yaxshi yoʻllardan biridir» (az-Zamaxshariy, 1986:64).

Taftazoniyning taʼrifi bilan Zamaxshariyning taʼrifi taqqoslansa, uning Zamaxshariydan taʼsirlangani maʼlum boʻladi. Taftazoniy iltifotning taʼrifini uning xususiyatidan kelib chiqqan holda chegaralaydi. Yaʼni, u (غير ما يتوقعه المخاطب) «tinglovchi kutganidan boshqa uslubga oʻtish» degan shart bilan iltifotning chegarasini aniqlashtirgan.

Bu oʻz navbatida iltifotga kiradigan baʼzi narsalarning oldini oladi. Taftazoniy mazkur narsalarni tadqiq etadi hamda ularning iltifot chegarasidan chiqish sababini yoritib beradi.

Taftazoniy iltifotning taʼrifiga (غير ما يتوقعه المخاطب) «tinglovchi kutganidan boshqa uslubga oʻtish» deb oʻzi kiritgan shart borasida shunday degan:

«Agar ushbu chegara eʼtiborga olinmasa, oʻsha sharh ostiga iltifotdan hisoblanmagan narsalar ham kirib ketadi. Masalan, quyidagi gapda bir shaxsda boshqa shaxsga oʻtish holati boʻlsa ham, iltifotga misol boʻla olmaydi

أنا زيد وأنت عمرو – Men Zayd, sen Amrsan.

أنت الذي فعل كذا – Shunday qilgan sensan.

Ayrim hollarda birinchi shaxs va ikkinchi shaxs olmoshi bilan, baʼzan koʻrsatish olmoshi va uchinchi shaxs olmoshi bilan bir maʼno ifodalanadi.

Masalan:

مأيد قف – Hoy Zayd, tur!

Ey ibrat ko'zi bor kishi, qo'limdan tut.

Iltifot qilnayotgan yo'lining takrorlanishi ham kuzatiladi.

Masalan: Fotiha surasidagi oyatlarda:

(مَالِكِ يَوْمَ الدِّينِ. إِنَّكَ نَعْبُدُ وَإِيَّاكَ نَسْتَعِينُ)

«U jazo-mukofot kunining egasidir. Faqat. Sengagina ibodat qilamiz va faqat sendagina yordam so'raymiz» (A. Mancyp, 2012:6; Fotiha surasi, 3-4-oyatlar).

Bu yerda iltifotdagi uchinchi shaxsdan ikkinchi shaxsga o'tish holati «إِيَّاكَ نَعْبُدُ» iborasida ko'rinadi.

Yana bir misol:

يا من هو عالم حَقَّق لي هذه المسألة فإنك الذي لا نظير له في هذا الفن.

«Ey olim kishi, menga ushbu masalani hal qilib ber. Chunki sen ushbu sohada tengi yo'q odamsan».

Yuqoridagi misolda uchinchi shaxsdan ikkinchi shaxsga o'tilgan.

Taftazoniy Mutanabbiyning quyidagi baytini keltiradi va unga munosabat bildiradi:

يا من يعز علينا أن نفارقهم وجداننا كل شيء بعدكم عدم.

«Ey firoqi bizga og'ir keladigan kimsalar,

Sizlardan keyin biz topgan har bir narsa aslida yo'qlidir».

Taftazoniy fikriga ko'ra ushbu baytda iltifot mavjud emas. Chunki, mavsulga qaytuvchi olmosh uchinchi shaxsda bo'ladi, undalma ishtirok etgan gap tugagandan keyin kelgan gap esa ikkinchi shaxs orqali ifodalanadi. Shu sababli, baytdagi «نفارقهم» so'zi uchinchi shaxs egalik olmoshi bilan, «بعدكم» so'zi esa ikkinchi shaxs olmoshi bilan kelgan.

Taftazoniy qasrning ta'rifida shunday degan:

«Uyushiq bo'lak, istisno va ulardan boshqa bir narsani ma'lum yo'l bilan xoslash qasrning usullaridan biri hisoblanadi. Chunki, u(qasr)dan chiqish uchun u(yo'llar) bilan qaydlangan. Masalan: زيد مخصوص (Zayd yozishga xoslangan), deya biror narsaga bog'lash bo'lgan قَيْد tushunchasini kiritgan.

Sheroziy (vaf. 1310-y.) qasrni istiloh sifatida birinchi bor ta'riflagan bo'lib, mazkur ta'rif mukammal ta'rifga juda yaqin hisolanadi:

وهو أنه عبارة عن تخصيص أحد الأمرين بالآخر وحصره فيه.

«U (qasr) – ikki ishdan birini boshqasi bilan xoslash va chegaralashdan iborat».

Lekin, Taftazoniydan oldin hech kim qasrning ta'rifiga «ma'lum yo'l bilan» (بطريق معهود) degan qaydni kiritmagan. Ma'oniyl ilmidagi qasrning ta'rifiga

Taftazoniy birinchi bo'lib mazkur qaydni kiritgan olim hisoblanadi.

Taftazoniy «Sharh al-miftoh» asarida qasrga quyidagi boshqa ta'rifni ham keltirgan.

«Qasr – istilohda kalomning biror qismini boshqasi bilan xoslash bo'lib, ushbu chegaradan chiqib ketmaydi va faqat unga bog'liq bo'ladi».

Bu ham qasrning boshqa ta'rif bo'lib, bir necha jihatdan Sheroziyning ta'rifiga o'xshaydi.

Taftazoniy balog'at ilmidagi shartli tashbeh (التشبيه) ta'rifida shunday degan:

«Shartli tashbeh mushabbah (o'xshatish asosi) ni yoki mushabbah bihi(o'xshatish etaloni)ning birini yoki ikkalasini aslida mavjud bo'lgan (وجودي) yoki aslida mavjud bo'lmagan (عدمي) shart bilan bog'lanishidir. Bu bog'lanishda, ochiq-oydin lafz bilan yoki gapning mazmuni orqali unga (shartga) ishora qilinadi» (at-Taftazoniy, 2015:344).

Masalan:

هو كالأسد في الجسارة.

U jasoratda sher kabi

u – o'xshatish asosi

kabi – o'xshatish vositasi

sher – o'xshatishga asos bo'lgan narsa

jasoratda – o'xshatish jihati (Rustamiy, 2019:10).

Rashiduddin Votvot (vaf. 1222) balog'atning badi' tarmog'idagi shartli tashbehga quyidagicha ta'rif bergan:

«Shart qilingan tashbeh bir narsani boshqa narsa bilan shartlardan biri orqali o'xshatish bo'ladi». Masalan:

«Agar bu bo'lganda mana bu bo'lar edi», deyishadi (Mu'jam al-mustalahat al-balaghiyya:343)

Mazkur ikki ta'rifni solishtiradigan bo'lsak, Taftazoniy shartli tashbeh (التشبيه المشروط) ta'rifida Rashiduddin Votvotning unga bergan ta'rifida kiritilmagan jihatni qo'shish uchun uni kengaytirgani ma'lum bo'ladi.

Rashiduddin Votvotdan keltirilgan quyidagi bayt har ikki ta'rifni o'z ichiga qamrab olgan:

عزماته مثل النجوم الثواقب ولم يكن للتأقبات أفول

Agar to'satdan paydo bo'luvchi yulduzlarda yo'q bo'lib ketish holati bo'lmaganida edi,

Uning azmu qarorlari to'satdan paydo bo'luvchi yulduzlar singari bo'lardi.

Ushbu misoldagi shart aslida mavjud bo'lgan (وجودي) shart bo'lib, uni aniq bir so'z ko'rsatib turadi. Rashiduddin Votvot shart qilgan

«to'satdan paydo bo'luvchi yulduzlar»ning yo'q bo'lib ketish holati esa mavjud hodisadir.

Taftazoniy esa shartli tashbehga oid ba'zi misollarda shartning mavjud bo'lmagan (عدمي) bo'lishi mumkinligi, ba'zan ushbu shartga gap mazmuni orqali ishora bo'lishi mumkinligi, ayrim hollarda esa shart tushirib qoldirilgan bo'lishi mumkinligini ta'kidlagan.

Masalan:

هي بدر تسكن الأرض أي لو كان البدر يسكن الأرض.

«U yerda yashaydigan to'lin oydir, ya'ni agar oy yerda yashaganda edi».

Ushbu misoldagi «لو كان البدر يسكن الأرض» – agar oy yerda yashaganda edi», degan shart mavjud bo'lmagan (عدمي) shart hisoblanadi.

هذه القبة فلك ساكن أي لو كان الفلك ساكناً.

«Ushbu gumbaz sokin falakdir, ya'ni agar falak sokin bo'lsa edi» (at-Taftazoniy, 2013:344).

Ushbu misoldagi «لو كان الفلك ساكناً» – agar falak sokin bo'lsa edi», degan shart ham mavjud bo'lmagan (عدمي) shart hisoblanadi.

Taftazoniy bayon ilmining ta'rifi haqida o'z fikrlarini bayon qilgan va balog'at istilohlari ta'rifida boshqalardan farq qiluvchi yo'nalishdan borgan. U bayon ilmiga quyidagi ta'rifni bergan:

علم البيان: علم يُبحث فيه عن التشبيه والمجاز والكناية.

«Bayon ilmi – bu tashbeh, majoz va kinoya bahs qilinadigan ilmdir» (at-Taftazoniy, 2020:310).

Taftazoniyga qadar Sakkokiy bayon ilmiga quyidagi ta'rifni bergan:

محاولة إيراد المعنى الواحد في طرق مختلفة بالزيادة في وضوح

الدلالة عليه.

«Ma'no aniqligini orttirib, bir ma'noni turli yo'llar orqali ifodalashga urinish (at-Taftazoniy, 2020:437)».

Taftazoniy Sakkokiyning bayon ilmi ta'rifida keltirgan qo'shimchalariga munosabat bildirgan.

Shuningdek, Taftazoniy balog'atdagi bayon ilmi tarkibiga yangi istilohlar kiritgan. Masalan:

1. Maxfiy tashbeh (التشبيه الضمني).

Maxfiy tashbehga oid misollarni Jurjoniyl alohida fasl qilib ajratib, ularni «ma'nolar ortidan keluvchi tamsil» (التمثيل في أعقاب المعاني), deb nomlagan va Mutanabbiyning ushbu so'zini unga misol sifatida keltirgan:

فإن تُفَقِّ الأتَمَ وأنت منهم فإن المسك بعض دم الغزال.

«Odamlardan yuqorilab ketsang-da, sen ulardansan,

Zero, mushk ham kiyikning qonidan bir parcha-ku!» (Mutanabbiy, (n.d.): 123; Jurjoniyl 1991:123; al-Qazviniyl, 2003:123; at-Taftazoniy, 2013:331).

Ushbu tamsilning maqsadlaridan biri o'zidan oldingi ma'noni ifodalash imkoniyatining bayoni ekani aytib o'tilgan (Jurjoniyl, 1991:123).

Qazviniyl buni mushabbahga qaytadigan maqsadlar ichida zikr qilgan (al-Qazviniyl, 2003:256). Taftazoniy Mutanabbiyl baytini keltirgandan so'ng:

«Agar, ushbu baytdagi tashbeh qayerda?», desangiz, aytamanki, bayt unga aniq dalolat qilmasa-da, zimniyl, ya'ni maxfiy tarzda ishora qiladi.

وليس مثل هذا تشبيهاً ضمناً أو تشبيهاً مكنياً عنه

Bu kabi tashbeh «zimniyl tashbeh» yoki «makniyyan anhu» bilan kelgan tashbeh deb atalsin» (at-Taftazoniy, 2013:331), deydi. Ushbu nomni Taftazoniyl oldin biror olim aytmagani.

Taftazoniyl iste'molga kiritgan ikki atamadan biri – «zimniyl tashbeh» balog'at ilmida ommaviylashgan.

Taftazoniyl muomalaga kiritgan tajozub (تجاذب), tasalsul (تسلسل) va tag'lit (تغليب) istilohlari badi' ilmiga doir bezaklar jamlanmasi hisoblanib, ular haqida shunday degan:

سميناه التجاذب وهو أن يقع أثناء الكلام كلمة متعلقة من جهة

المعنى بالطرفين.

«Gap asnosida ma'no jihatidan ikki tomonga taalluqli bo'lgan kalomni tajozub (تجاذب) deb nomlaganmiz.

Masalan:

«مددْتُ اليدَ أَخَذْتُ مِنْهُ

«Qo'l cho'zib undan oldim».

سميناه التسلسل وهو أن تترتب الألفاظ متعلقات كل منها بالآخر

على وجه واحد.

Lafzlarning biri ikkinchisiga biror jihatdan bog'liq bo'lib tartiblanishini tasalsul (تسلسل) deb ataganmiz.

Masalan:

أخرجت لي الوردَ من الشوك، والشوكَ من الرَّجُل، والرَّجُلَ من

الطين

«Men uchun tikondan gulni, tanadan tikonni va tuproqdan tanani chiqardim».

سميناه التغليب وهو أن يكون للفظ معنيان فيكنى عن أحدهما بما لا

يصح كناية إلا عن الآخر تغليطاً من توسيط جعل المكنى عنه ذلك اللفظ

«Ikki ma'noga ega lafzning faqat ikkinchisini kinoya qilish mumkin bo'lgan holat bo'lib, bunda o'sha lafzni kinoya qilinayotgan so'zga vosita qilib, chalg'itgan holda aytililishini tag'lit (تغليب), deb nomlaganmiz.

Abu Hasan ibn Tabotaboiiy Alaviyning ushbu so'zi bunga misoldir:

مُنَعَّمُ الجَسَمِ يحكي الماءَ رقتَ وقلبه قسوةٌ يحكي أبا أوس.

«Ne'matlarga ko'milgan jism suvning mo'lligini hikoya qiladi,

Qalbi qattiq bo'lsa, Abu Avs haqida so'zlaydi».

Baytda nomi kelgan Abu Avs ibn Hajar yetuk shoirlardan biridir. Hajar (حجر) so'zi tosh ma'nosini anglatadi».

Taftazoniy tomonidan badi' ilmiga oid (تجاذب), tasalsul (تسلسل) va tag'lit (تغليب) istilohlari u tomonidan birinchi marta muomalaga kiritilgan.

Taftazoniy «nashr» (نشر) va «laff»ning (لف) yangi ikki turini keltirgan hamda ular uchun ma'kusu-t-tartib (مختلط الترتيب) va muxtalatu-t-tartib (معكوس الترتيب), deb nomlanadigan istilohlarni qo'llagan.

Taftazoniy «nashr» va «laff»ni ajratgan. Bu bir nechta narsani batafsil yoki umumiy tarzda zikr qilish bo'lib, undan so'ng har biri uchun ta'yin qilmasdan zikr qilishdir. Tinglovchi uni nimaga qaytarilishini aniq biladi, u ikki qism bo'ladi. Birinchisi:

ما يكون فيه النشر على ترتيب اللف
«Laf tartibida nashr mavjud bo'lgan turi»
(وَمِنْ رَحْمَتِهِ جَعَلَ لَكُمُ اللَّيْلَ وَالنَّهَارَ لِتَسْكُنُوا فِيهِ وَلِتَبَيِّنُوا مِنْ فَضْلِهِ)

«U zot O'z rahmati ila sizlarga kecha va kunduzni orom olishingiz va O'z fazlidan talab qilishingiz uchun paydo qilgan» (A. Махсуп, 2012:624; Qasas surasi, 73-oyat).

«Nashr»ning birinchisi ikkinchisiga «laff» orqali bog'lanib keladi. Ba'zan «laff» va «nashr»ning birinchi ko'rinishi ham shu tartibda kelishi mumkin.

Masalan:

هو شمس وأسد وبحر جودا وبهاء وشجاعة
«Saxovat, go'zallik va shijoatda
U quyosh, sher, dengizdir».

Taftazoniy buni aralash tartibli (مختلط الترتيب) deb nomlagan.

Ikkinchisi:

ما يكون فيه النشر على غير ترتيبه.
(«Laff») tartibida bo'lmagan «nashr» mavjud bo'lgan tur. Taftazoniy ikkinchi turni teskari tartiblangan (معكوس الترتيب), deb nomlagan.

Masalan:

كيف أسلو وأنت حقف وغصن وغزال لحظا وقدا وردفا.

Balog'at olimlari «laff» va «nashr»ning ikkinchi turini ikki qismga ajratishmagan. Ularni ikkiga ajratish va ularga nom berish Taftazoniy tomonidan qilingan yangilik hisoblanadi.

Taftazoniy tag'libga (تغليب) yangi bir turni qo'shgan va uni «tag'libu-l-uqalo» (تغليب العقلاء) deb nomlagan bo'lib, u haqda shunday degan:

ومنه تغليب العقلاء على غيرهم بإطلاق اللفظ المختص بالعقلاء على الجميع

«Oqillar (insonlar) uchun xos bo'lgan lafzini umumiy tarzda barcha uchun qo'llash «tag'libu-l-uqalo» (تغليب العقلاء), deb ataladi.

Masalan:

خلق الله الناس والأنعام و رزقهم

«Alloh insonlarni, hayvonlarni yaratdi va ularga rizq berdi».

Ushbu misolda (رزقهم) iborasidagi «ularni» ko'rsatish olmoshi aslida insonlar uchun qo'llaniladi. Lekin, bu o'rinda mazkur olmosh insonlar va chorva hayvonlari uchun umumiy ishlatilgan.

Taftazoniy istiora va tashbeh o'rtasidagi farq haqida shunday degan:

وأما إذا ترك المشبه بالكلية لكن أتى بوجه الشبه ففيه إشكال.

«Agar mushabbah (المشبه) to'laligicha tushurib qoldirilib, o'xshatilayotgan narsa (وجه الشبه) keltirilsa muammo kelib chiqadi.

Masalan:

رأيت أسدا في الشجاعة

«Shijoatda sherni ko'rdim».

XULOSA

Taftazoniy o'z zamondoshlari va o'zidan oldingilarning Jurjoniy uslubiga ko'ra chiqargan xulosalari, ko'p misollar keltirishi, ulardan balog'atga oid nozik jihat va misollarni chiqarishi, ba'zan aqliy taqsimotlarda chegaradan chiqishlariga e'tiroz bildirgan.

Balog'at ilmining rivojlanish jarayonida tashbehning ayrim xususiyatlariga ko'ra tasniflari, turlari va nomlanishi ham ma'lum darajada o'zgarib borgani ma'lum bo'ladi. Sakkokiy tashbehni uning to'rt jihati, ya'ni o'xshovchi va o'xshatiluvchi, o'xshash jihati, o'xshatish vositasi va tashbehning maqsadlari asosida o'rgangan. U tashbehning ruknlari ishtirokiga ko'ra sakkiz turini ko'rsatib bergan. Tashbehni martabalariga ko'ra oliy, o'rta va quyi guruhlariga ajratgan.

Tashbehning kuchli yoki zaifligida ruknlarning ishtiroki muhim ahamiyatga ega. Tashbeh o'xshovchi va o'xshatiluvchining xususiyatlariga ko'ra hissiy va aqliy, mufrad va murakkab, malfuf (o'ralgan), mafuq (ajratilgan), tasviya (tenglashtirilgan), jam' (to'plangan) turlarga ajratilgan.

O'xshash jihatiga ko'ra haqiqiy va hayoliy; mufrad, murakkab, muta'addid; hissiy va aqliy; tam-siliy va g'ayritamsiliy; mufasssalva mujmal; qarib muhtazal va g'arib ba'id qismlarga bo'lingan. O'xshatish vositasiga ko'ra mursal, muakkad va tashbihning maqsadlariga ko'ra maqbul va mardud qismlari mavjud.

Taftazoniy arablar uslublarini sinchkovlik bilan o'rganib chiqqan. Bu bilan u balog'at ulamolari, jumladan, Jurjoniy ishlab chiqqan ba'zi hukmlarni

dalillar bilan bayon qila olgan. Ba'zilar uslub torligi tufayli tor bo'lib qolgan. Ba'zilar inkor qiluvchi belgisi borligi uchun buzilgan. Buni muallifdan keyin kelgan va uning asarlariga katta e'tibor qaratgan ko'pchilik olimlar anglab yetgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Taftazoniyning Jurjoniya arab balog'ati borasidagi qarashlariga nisbatan bildirgan fikri turli xil bo'lgan. Taftazoniy bu qarashlarning ba'zilarida Jurjoni to'xtalmagan jihatlarni tadqiq qilgan, ba'zilariga boshqacha ilmiy qarashlar bildirgan. Taftazoniy arab balog'atida Jurjoni ishlab chiqqan ayrim asos va qoidalarini muhaqqiq olimlar fikriga ko'ra emasligini isbotlamoqchi bo'lgan.

Taftazoniy Qazviniyning balog'atga oid qarashlarini o'rgangan va ularni sharhlagan. Taftazoniyning arab balog'atiga oid ushbu nazariy qarashlari ilmiy haqiqatlarni tadqiq qilishda qiymatli va muhim hisoblanadi.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Atoq, Abdulaziz. (1985). *Ilm al-bayon*. Bayrut: Dor an-Nahza al-'Arabiyya.
2. Atoq, Abdulaziz. (1986). *Ilm al-ma'oniyy*. Bayrut: Dor an-Nahza al-arabiyya.
3. Atoq, Abdulaziz. (2015). *Ilm al-badi'*. Bayrut: Dar an-Nahza al-arabiyya.
4. Atoq, Abdulaziz. (2015). *Ilm al-badi'*. Bayrut: Dor an-Nahza al-'Arabiyya.
5. al-Bag'aviy, Muhammad Abu al-Fazl Ali Muhammad. (1952). *Kitab as-Sino'atayn*. Qohira.
6. al-Bag'dodiy, Muhammad ibn Haydar. (1989). *Qonun ar-ritorika*. Bayrut.
7. al-Bakriy, Shayx Amin. (1984). *Al-balag'a al-arabiyya fi sovbiha al-jadid*. Bayrut.
8. Fanoriy. (2007). *Al-Hoshiya ala al-Mutavval*. Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya.
9. Fehmi, Abdurrahmon. (1887). *Medresetü'l-Arab*. Istanbul.
10. Hacımuftüog'lu, Nasrulloh. (1988). *Belagat ekolleri va Anadolu belagat çalışmaları*. Erciyes Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Dergisi.
11. Hasan, Fazl. (1997). *Al-balag'a: Fununuho va afnonunuho*. 'Umon: Dor al-Furqon.
12. al-Hoshimiy, Ahmad. (2008). *Javohir al-balag'a*. Bayrut: Dor al-Ihyo.
13. al-Johiz, Amr ibn Bahr. (2006). *Kitob al-bayon va-tabyin*. An-Nur kutubxonasi.
14. al-Jurjoniyy, Abdulqohir ibn Abdurrahmon. (1991). *Asror al-balag'a*. Jidda: Dor al-Madaniy.
15. al-Jurjoniyy, Abdulqohir ibn Abdurrahmon. (2005). *Daloyil al-e'joz fi-l-ma'oniyy*. Qohira: At-Tavfiqiya kutubxonasi.
16. Mansur, Abdulaziz. (2012). *Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri*. Toshkent: Toshkent Islom Universiteti nashriyoti.

17. Mehmed, Abdurrahmon. (1893). *Tertib-i Cedid Belagat-i Osmaniyye*. Istanbul.
18. al-Qazviniy, Jaloluddin Muhammad ibn Abdurrahmon. (2003). *Al-'Izoh fi 'ulum al-balag'a*. Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya.
19. as-Sakkokiy, Abu Ya'qub Yusuf ibn Abi Bakr. (1999). *Miftoh al-ulum: al-bayon – al-ma'oniyy – al-badi'*. Qohira. Dor al-kutub al-ilmiyya.
20. as-Sakkokiy, Abu Ya'qub Yusuf ibn Abi Bakr. (1999). *Miftoh al-'ulum*. Qohira.
21. as-Suyutiyy, Jaloliddin. (1967). *Bughyat al-vu'ot*. J. 2. Misr.
22. at-Tabona, Badaviy. (1988). *Mu'jam al-balag'a al-arabiyya* (3-nashr). Jidda: Dor al-Manora.
23. at-Taftazoniy, Sa'duddin Mas'ud ibn Umar. (2013). *Al-Mutavval sharh Talxis Miftoh al-'ulum*. Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya.
24. at-Taftazoniy, Sa'duddin Mas'ud ibn Umar. (2013). *Ash-Sharh al-mutavval li-talxis al-miftoh*. Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya.
25. at-Taftazoniy, Sa'duddin Mas'ud ibn Umar. (2017). *Muxtasar al-ma'oniyy sharh kitob talxis al-miftoh*. Istanbul: Dor ash-Shifo.
26. at-Taftazoniy, Sa'duddin Mas'ud ibn Umar. (2020). *Sharh Miftoh al-'ulum*. Damashq: Dor at-taqvo.
27. az-Zamakhshari, Jorulloh Mahmud ibn Umar. (1986). *Al-Kashshof*. J.1. Bayrut: Dor al-kitob al-arabi.
28. Zayf, Shavqiy. (2008). *Al-Balog'a: at-tatavvur va-tarix*. Bayrut. Dor al-kutub al-ilmiyya.

REFERENCES

1. Atoq, Abdulaziz. (1986). *Ilm al-ma'ani*. Beirut: Dar an-Nahda al-'Arabiyya.
2. Atoq, Abdulaziz. (1985). *'Ilm al-bayon*. Beirut: Dar an-Nahda al-Arabiyya.
3. Atoq, Abdulaziz. (2015). *Ilm al-badi'*. Beirut: Dar an-Nahda al-Arabiyya.
4. Atoq, Abdulaziz. (2015). *Ilm al-badi*. Beirut: Dar an-Nahda al-Arabiyya.
5. al-Bag'aviy, Muhammad Abu al-Fazl Ali Muhammad. (1952). *Kitab as-Sana'atayn*. Cairo.
6. al-Bag'dodiy, Muhammad ibn Haydar. (1989). *Qonun ar-Ritorika*. Beirut.
7. al-Bakriy, Shaykh Amin. (1984). *Al-balag'a al-arabiyya fi sovbiha al-jadid*. Beirut.
8. Fanariy. (2007). *Al-Hashiya ala al-Mutavval*. Beirut: Dar Kutub.
9. Fehmi, Abdurrahmon. (1887). *Medresetü'l-Arab*. Istanbul.
10. Hacımuftüog'lu, Nasrulloh. (1988). *Belagat ekolleri va Anadolu belagat çalışmaları*. Erciyes Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Dergisi.
11. Hasan, Fazl. (1997). *Al-balag'a: Fununuha va afnanunuha*. 'Umon: Dar al-Furqon.
12. al-Hashimiy, Ahmad. (2008). *Javahir al-balag'a*. Beirut: Dar al-Ihya.

13. al-Jahiz, Amr ibn Bahr. (2006). *Kitab al-bayan va-t-tab'yin*. An-Nur library.
14. al-Jurjoniyy, Abd al-Qohir ibn 'Abd ar-Rahmon. (1991). *Asror al-balag'a*. Jidda: Dar al-Madaniyy.
15. al-Jurjoniyy, Abd al-Qohir ibn Abd ar-Rahmon. (2005). *Dalail al-i'jaz fi-l-ma'ani*. Cairo: At-Tavfiqiyya library.
16. Mansur, Abdulaziz. (2012). *Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri*. Toshkent: Toshkent Islom Universiteti nashriyoti.
17. Mehmed, Abdurrahmon. (1893). *Tertib-i Cedid Belagat-i Osmaniyye*. Istanbul.
18. al-Qazviniyy, Jalol ad-Din Muhammad ibn Abd ar-Rahmon. (2003). *Al-Idoh fi ulum al-balag'a*. Beirut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya.
19. as-Sakkakiyy, Abu Ya'qub Yusuf ibn Abi Bakr. (1999). *Miftah al-Ulum*. Cairo.
20. as-Sakkakiyy, Abu Ya'qub Yusuf ibn Abi Bakr. (1999). *Miftah al-Ulum: Al-bayan – al-ma'ani – al-badi*. Cairo. Dor al-kutub al-ilmiyya.
21. as-Suyutiyy, Jaloliddin. (1967). *Bughyat al-vu'at*. V. 2. Misr.
22. at-Tabona, Badaviyy. (1988). *Mujam al-balag'a al-arabiyya*. (3rd edition). Jidda: Dar al-Manara.
23. at-Taftazoniyy, Sa'duddin Mas'ud ibn 'Umar. (2017). *Mukhtasar al-ma'ani sharh kitab talkhis al-miftah*. Istanbul: Dar ash-Shifa.
24. at-Taftazoniyy, Sa'duddin Mas'ud ibn Umar. (2013). *Ash-sharh al-mutavval li-talkhis al-miftah*. Beirut: Dar al-Kutub al-'Ilmiyya.
25. at-Taftazoniyy, Sa'duddin Mas'ud ibn Umar. (2020). *Sharh Miftah al-Ulum*. Damascus: Dar at-Taqva.
26. at-Taftazoniyy, Sa'duddin. (2013). *Al-Mutavval sharh Talkhis Miftah al-Ulum*. Beirut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya.
27. az-Zamakhshari, Jarallah Mahmud ibn Umar. (1986). *Al-Kashshaf*. V. 1. Beirut: Dar al-Kitab al-Arabi.
28. Zayf, Shavqiy. (2008). *Al-balag'a: at-tatavvur va-t-tarikh*. Beirut.

